



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 3168,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 17,6 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,7 foizga ko'payishiga olib keldi.

Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-avgust oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shma-gan holda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (35,5 foiz), Xazorasp tumani (13,1 foiz), Urganch tumani (8,5 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 103,5 foizni tashkil qilib, 1750,6 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-avgust oyida 1390,5 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (8008,8 ming. so'm), Gurlan tumanida (1749,6 ming. so'm) va Xazorasp tumanı (1728,5 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 52,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,0 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	8008,8	109,3
Xiva shahar	1431,8	105,6
Bog'ot tuman	910,3	100,9
Gurlan tuman	1749,6	103,9
Qo'shko'pir tuman	756,1	98,9
Urganch tuman	1408,9	97,9
Xazorasp tuman	1728,5	99,3
Xonqa tuman	1058,9	98,5
Xiva tuman	527,9	100,8
Shovot tuman	1089,3	103,0
Yangiariq tuman	1538,6	103,6
Yangibozor tuman	1108,0	100,0

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,4 foizni tashkil qiladi.

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 71,9 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 332,5 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,5 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov
(0371) 230-87-68